

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53407-3.20

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**BANK STATISTIKASI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340700 - "Bank ishi"
bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Murugova I. A.,
k.o'q. Ernazarov N. S.

Taqrizchilar: dots. Rahmonov A. S.,
k.o'q. Omonov X. N.

"Bank statistikasi" fani banklarda statistik izlanishlar, kuzatishlar olib boruvchi fanlardan biri bo'lib, unda banklarda statistik kuzatishlarni olib borish, birlamchi ma'lumotlarni yig'ish va guruhlash hamda umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni hisoblash va yakuniy xulosalarni chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pul muomalasining holati, qisqa va uzoq muddatli kreditlashni olib borishdagi bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlar ushbu fanni o'rganish jarayonida ko'rib chiqiladi. Fanni o'qitish orqali bank sohasi bo'yicha o'qiyotgan talabalar bank faoliyatida ma'lumotlarni yig'ish, guruhlash va umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar orqali hisobotlar tuzishi ko'nikmasini hosil qiladilar.

Предмет "Банковская статистика" является одним из предметов для изучения статистических исследований, применяемых в банках. В нём заключаются: статистические исследования в банках, сбор начальной информации и её группировка, а также порядок исчисления общих показателей и окончательное обобщение. В изучении этого предмета также можно столкнуться со статистикой потока денежного оборота, краткосрочного и долгосрочного кредитования в деятельности банка. При преподавании предмета студенты по специальности "Банковское дело" учатся делать отчёты по сбору начальной информации, их группировки и вычислению общих показателей в деятельности банка.

Bank statistics is one of the subjects which conducts statistical researches which conducts statistical researches, observes in banks, in it to conduct statistical researches, to gather preliminary data and grouping and also to calculate generalized indicators and to summarize final conclusions are main all matters related to the condition of money circulation, bank activity in carrying on short-term and long term financing which is the financial results of banks will be reviewed during learning process of the subject. By teaching the students studying in Banking sphere develop and skills in gathering data, grouping, and making reports by generalized indicators in Banks activity.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida

muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

"Bank statistikasi" fanini o'qitishning maqsadi va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan davlat ta'lim standartiga asosan "Bank statistikasi" fani o'qitiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ob'ektiv statistik ma'lumotlarga bo'lgan talab ancha oshadi. Bank statistikasi statistika fanining birinchi tarmog'i bo'lib hisoblanadi. Bu fan banklarning asosiy funktsiyalarini o'zida mujassamlashtiradi, bular esa bank statistikasida bo'limlarga ajratilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohot, iqtisodiy o'zgarishlar statistika fani oldiga umumiy vazifalarni yuklaydi. Bank statistikasining asosiy vazifasi banklarda amalga oshiriladigan operatsiyalarni ob'ektiv yoritib berish hamda pul-kredit munosabatlarini rivojlantirishning qonuniyligini ta'minlashdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

Statistik usullar asosida bank faoliyati sohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni miqdoriy tomonini bilib olish, iqtisodiy izlanishlar jarayonida statistik ko'rsatkichlarni hisoblash talabalarning oldiga qo'yiladigan asosiy talablardan biridir.

Bu talab statistik ma'lumotlarni amaliyotda qo'llash shartlarini va jamlangan taxminiy ma'lumotlar bo'yicha samarali natijalar chiqarishga yordam bo'ladi.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi

"Bank statistikasi" fani "Statistika", "Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnikasi", "Bank ishi", "Bank faoliyati tahlili" kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

"Bank statistikasi" fanini o'rganish, birinchi navbatda, statistikaning umumiy nazariyasini chuqur bilishni hamda banklardagi buxgalteriya hisobini yangi schyotlar rejasi asosida yaxshi bilishni taqozo etadi.

Fanni o'rgatishdagi yangi texnologiyalar

Talabalar o'qish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalangan holda ba'zi tijorat banklar faoliyatida qo'llaniladigan mijozlarni kreditlash va loyihalarni moliyalashtirish, xo'jalik sub'ektlari o'rtasida hisob-kitoblarni olib borish bilan bog'liq kopyuter dasturlari bilan tanishadilar. Fanning ba'zi mavzularini yoritishda audio va video texnikadan foydalaniladi.

Fanni o'qitishning semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

"Bank statistikasi" fani bo'yicha talabalar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lab o'rganib boradilar. Fanni o'rganish 6-semesterga to'g'ri keladi va u tarkibiy jihatdan ma'ruza, amaliy darslar, nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlash davrlaridan iborat.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajm

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 54 soat hajmida vaqt ajratilgan. Ularning 18 soati ma'ruza, 18 soati amaliy mashg'ulotlar. Bundan tashqari, 18 soat hajmida vaqt mustaqil ta'limga ajratilgan.

2. FAN DASTURI

Bank statistikasining predmeti, metodi va vazifalari. Banklarda statistik ishlarni tashkil qilish

Bank statistikasining predmeti va uning bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitidagi ahamiyati. Bank statistikasining metodi.

Bank statistikasini statistikaning umumiy nazariyasi bilan bog'liqligi va farqlari. Bank statistikasining asosiy vazifalari va hozirgi sharoitda banklarda statistik ishlarni tashkil qilish muammolari.

Statistik izlanish asoslari, bank statistikasining asosiy ko'rsatkichlari. Balans statistikasi

Banklarda statistik izlanish asoslarini tashkil qilish. *Statistik ko'rsatkichlarning asosiy turlari va ularga tavsifnoma. Bankning balans hisobotiga tavsifnoma.* Tijorat banklari balansini statistik tahlil qilishning asosiy turlari.

Qisqa muddatli kreditlash statistikasi

Qisqa muddatli kreditlash statistikasining asosiy vazifasi va bozor iqtisodiyoti davrida hisobotlarni tuzish muammolari. *Qisqa muddatli kreditlash bo'yicha tuziladigan hisobot turlari.*

Hisobotlarni tahlil qilishning asosiy ko'rsatkichlari va ularga tavsifnoma.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar statistikasi

Naqd pulsiz hisob-kitoblar statistikasining asosiy vazifalari va hozirgi sharoitda hisobotlar tuzishdagi muammolar. *Naqd pulsiz hisob-kitoblar bo'yicha statistik hisobotlarni tashkil qilish va uning asosiy turlari.* Hisobotlarni tahlil qilishning asosiy ko'rsatkichlari va unga tavsifnoma.

Pul muomalasi statistikasi

Pul muomalasi statistikasining asosiy vazifasi va hozirgi sharoitda hisobotlar tuzishni tashkil qilish yo'llari. *Pul muomalasi bo'yicha statistik hisobotlarni tuzishni tashkil qilish va uning asosiy turlari.* Hisobotlarni tahlil qilishning asosiy ko'rsatkichlari va unga tavsifnoma.

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish va kreditlash statistikasi

Tijorat banklarining kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish va uzoq muddatli kreditlash bo'yicha tuzadigan hisobotlari va ularni tuzishdagi muammolar. *Hisobotlarni asosiy shakllari va ularga tavsifnoma.* Hisobotlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar va ularga tavsifnoma.

Jamg'arma ishlari statistikasi

O'zbekiston Respublikasi Xalq banki tomonidan statistik hisobotlar majmuini tuzish muammolari va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. *Xalq bankining jamg'armalar va boshqa operatsiyalari bo'yicha tuziladigan joriy va yillik hisobotlariga tavsifnoma.*

Hisobotlarni tahlil qilishning asosiy ko'rsatkichlari va ularga tavsifnoma.

3. AMALIY MASHG'ULOTLARNING MAVZULARI

Statistik izlanish asoslari, bank statistikasining asosiy ko'rsatkichlari. Balans statistikasi

Banklarda statistik izlanishlarni tashkil qilish muammolari va uning asosiy davri. Statistik ko'rsatkichlarning asosiy turlari va ularni hisoblash tartibi*. Absolyut va nisbiy miqdorlar. Dinamik qatorlar. O'rtacha miqdorlar. Variatsiya, indeks ko'rsatkichlari.

Banklarni balans hisobotlari mazmuni

Tijorat banklarining statistik ma'lumotlari manbai bo'lmish balansiga tavsifnoma. Bank balansini tahlil qilishining asosiy usuli*. Banklarda balans tuzish tartibi.

Qisqa muddatli kreditlash statistikasi

Tijorat banklarida qisqa muddatli kreditlash operatsiyalari bo'yicha statistik hisobotlarni tashkil qilish. Qisqa muddatli kreditlash bo'yicha tuziladigan asosiy hisobotlarga tavsifnoma.

Qisqa muddatli kreditlash bo'yicha tuziladigan hisobotlar ko'rsatkichlarini hisoblash tartibi va metodikasi*. Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi. Nisbiy va o'rtacha miqdorlar. Kreditning qaytarilishi va muddatlilik ko'rsatkichi. Kreditning samaradorligi ko'rsatkichi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar statistikasi

Tijorat banklarida naqd pulsiz hisob-kitoblar bo'yicha statistik hisobotlar tuzishni tashkil qilish. Naqd pulsiz hisob-kitoblar bo'yicha tuziladigan hisobotlarga tavsifnoma. Naqd pulsiz hisob-kitoblar hisobotlarini tahlil qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlarini hisoblash tartibi va turlari*. Naqd pulsiz to'lov oborotiga tavsifnoma. Xalq xo'jaligida to'lov intizomini saqlash ko'rsatkichlari.

Pul muomalasi statistikasi

Pul muomalasi bo'yicha tijorat banklarida statistik hisobotlar tuzishni tashkil qilish. Kassa aylanishi bo'yicha tuziladigan hisobotlarga tavsifnoma. Pul muomalasi bo'yicha tuziladigan hisobotlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlarni hisoblash metodikasi va turlari*. Pulning aylanish tezligi ko'rsatkichi. Pul massasini pul belgilari bo'yicha tuzilishi. Pul migratsiyasi ko'rsatkichi.

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish va kreditlash statistikasi

Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish va kreditlash bo'yicha tijorat banklarida statistik hisobotlar tuzishni tashkil qilish.

Moliyalashtirish bo'yicha tuziladigan hisobotlarga tavsifnoma.

Uzoq muddatli kreditlash bo'yicha tuziladigan hisobotlarga tavsifnoma*. Hisobotlarni tahlil qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlarni hisoblash metodikasi va turlari*.

Jamg'arma ishlari statistikasi

O'zbekiston Respublikasi Xalq bankida statistik hisobotlarni tashkil qilish. Jamg'armalar, zayomlar va boshqa operatsiyalar bo'yicha tuziladigan joriy va yillik hisobotlarga tavsifnoma. O'zbekiston Respublikasi Xalq banki hisobotlarini tahlil qilishda qo'llaniladigan hisoblash metodikasi va turlari*.

Mamlakatda jamg'arma ishlari holatini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar. Jamg'arma operatsiyalarining ko'rsatkichlari.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA NAMOYISH MATERIALLARI: INFORMATSION-TEXNIK VOSITALAR

Internet saytlari: WWW.bizbook.ru, WWW.chtivo.ru.

Audeo-video jihozlar, mavzuga bag'ishlangan video kassetalar.

Kodoskop orqali ko'rsatiladigan slaydlar:

- Statistik izlanish asoslari, bank statistikasining asosiy ko'rsatkichlari. Balans statistikasi mavzusi bo'yicha 2 ta slayd;
- Qisqa muddatli kreditlash statistikasi mavzusi bo'yicha 3 ta slayd;
- Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish va kreditlash statistikasi mavzusi bo'yicha 4 ta slayd.

5. O'ZLASHTIRISHNING NAZORATI

Fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB) 35%;
- oraliq baholash (OB) 35%;
- yakuniy baholash (YaB) 30%.

JB va OB turlar va belgilangan ballar miqdori (o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning) 70%, yakuniy baholash esa 30% miqdorida belgilanadi.

Fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan keyin YaB "yozma ish" usulida (o'quv rejasiga ko'ra) o'tkaziladi.

Tayanch tushunchalariga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida" "Yozma ish" usulini tadbqiq etish bo'yicha Namunaviy nizom bilan belgilanadi.

Semestr (o'quv yili) davomida o'qitilgan fan bo'yicha 55 va undan yuqori foizni to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan deb hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55% idan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz o'qiyotgan (akademik qarzdor) deb hisoblanadi.

Semestr davomida fan bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86-100 - "a'lo" - 30,9-36,0 ball;
- 71-85 - "yaxshi" - 25,5-30,6 ball;
- 55-70 - "qoniqarli" - 19,8-25,2 ball.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat statistikasi to'g'risida"gi Qonuni. -T., 2002 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy bank to'g'risida"gi qonuni. -T., 1995.
3. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. -T., 1996.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari 1995 y. 5 yanvardan 2001 yil 1 yanvargacha. –T.: Adolat, 2000.
5. Bankovskoe delo: Upravlenie i texnologiya: Uch. pos. dlya VUZov. Pod red. prof. A.N. Tovasheva, - M.: YuNITI-DANA, 2001.
6. Banki i bankovskoe delo / Pod. red. I.T. Balabanova – SPb.: Piter, 2001.
7. Bratko A.G. Bankovskoe pravo: Teoriya i praktika –M.: PRIOR, 2000.
8. Dengi, kredit, banki. Tsennie bumagi. Praktikum: Ucheb. posobie dlya vuzov – Pod red. E.F. Jukova. - M.: YuNITI–DANA, 2001.
9. Iminov O.K. Kreditniy mexanizm sovremennix usloviyax. Monografiya. - T: TGEU, 2000.
10. Iqtisodiy yo'nalishlar choraklik nashr. O'zbekiston. Aprel-iyun. 2001.
11. Kazimogomedov A.A., Ilyasov S.M. Organizatsiya denejno-kreditnogo regulirovaniya. -M.: Finansi i statistika, 2001.
12. Natsionalnoe schetovodstvo. Ucheb./Pod. red. Kulaginoy E.D. –M.: FiS, 1997.
13. Parfyonov K.G. Bankovskiy plan schetov i pravila vvedeniya buxgalterskogo uchyota. - M.: Gelios ARV, 2001.
14. Slin V.I. i drugie Makroekonomicheskaya statistika. Uchebnoe posobie. 2-e izdanie, ispr., -M: Delo, 2001.
15. Savchuk V.P., Primekko S.I., Velichko E.G. Analiz azborka investitsionnix proektov: Ucheb. posobie –Kiev: Elga, 1999.
16. Stoyanova E.S. i dr. Upravlenie oborotnim kapitalam –M: Perspektiva, 1998.
17. Finansovaya ekonomika firmi: Ucheb. posobie / SD Ilenkova N.D., A.V. Chetvertikova i dr. Pod. obshch. red. prof. Ilenkovoy S.D. - M.: Kompaniya Sputnik, 2000.
18. Xamraev M., Shodiev X. Moliyaviy statistika. -T.: Abu Ali ibn Sino, 2002.
19. Tsennie bumagi: Uchebnik / Pod red. V.I. Kolesnikova, V.S. Tarkanovskogo –2-e izdanie: pererab. i dop. -M.: Finansi i statistika, 2001.
20. Sheremet A.D. Finansovi analiz v komercheskom banke. –M.: Finansi i statistika, 2000.
21. Ekonomicheskaya statistika Ucheb. pod red. Yu.N. Ivanova -M.: Infra-M, 1998.

22. O'zbekiston Respublikasi banklarida statistik hisobotlarni tuzish qoidasi. № 227: 18-may 1996.

23. Internet saytlari:

- www.banking.com – mintaqaviy banklar, assotsiatsiyalar va nashriyotlar bo'yicha bank sanoati resurslari direktorligi.
- www.banking.com/aba - Amerika banklari assotsiatsiyasi.
- www.state.ct.us/dob – Konnektikut banklari va kredit birlashmalari, kredit muassasalari va qo'riqlash sanoatini boshqaradi.
- www.arraydev.com/commerce/JIBC - internet banking va kommertsiya jurnali.
- www.bankingtech.com - bank texnologiyalari.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi bank muassalarida buxgalteriya hisobi va hisobotlarni yuritish qoidasi. № 61 05.09.97.
2. O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan xo'jalik sub'ektlarini uzoq muddatli kreditlashni tashkil qilish qoidasi № 330 10. 05. 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi naqd pulsiz hisob-kitoblarni yuritish qoidasi № 60. -T., 2002.
4. Dmitrieva I. Buxgalterskiy uchet i audit. -M., 2002.
5. Kolesnikov V.I., Krasavina A.P. Bankovskoe delo. -M., 1996.
6. Lavrushin O.I. Bankovskoe delo. -M., 1998.
7. Mullajonov F.M. O'zbekiston Respublikasida bank tizimi. -T., 2001.
8. Makalskaya A.K. Vnutrenniy audit. -M., 2001.
9. Smirnov L. Bankovskiy audit. -M., 2001.
10. Shaxbazova I. Buxgalterskiy uchet i audit. -M., 2002.